

O‘ZBEKISTON VA TURKIYA MUNOSABATLARINING SSSR DAVRIDAN KEYINGI BOSQICHI: TARIXIY VA STRATEGIK TAHLIL

Muallif: Sobitjonova Arofat Muzaffar qizi
Soha: Xalqaro jurnalistika

Annotatsiya: Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasi va Turkiya Respublikasi o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlarning SSSR parchalanganidan keyingi davrda qanday shakllanib borganligi tarixiy va strategik nuqtai nazardan tahlil etiladi. Mustaqillikning ilk yillarida Turkiyaning O‘zbekistonni birinchi bo‘lib tan olgan davlatlardan biri sifatida tutgan o‘rni, madaniy-ma‘naviy yaqinlik, turkiy xalqlar o‘rtasidagi qardoshlik rishtalari, hamkorlikning dastlabki shakllari va siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ta‘lim hamda madaniyat sohalarida olib borilgan qo‘shma tashabbuslar yoritib beriladi. Shuningdek, Turkiya bilan strategik sheriklikning mustahkamlanishiga ta‘sir etgan global va mintaqaviy omillar hamda zamonaviy geosiyosiy jarayonlardagi hamkorlik istiqbollari ko‘rib chiqiladi. Maqola ikki mamlakat o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos bosqichlari, muammolari va yutuqlarini tarixiy asosda tahlil qilib, O‘zbekiston tashqi siyosatining turkiy davlatlar bilan aloqalar kontekstida baholanadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston, Turkiya, diplomatik aloqalar, strategik hamkorlik, tarixiy tahlil, SSSRdan keyingi davr.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so‘ng, tashqi siyosatning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida mintaqaviy va madaniy yaqin davlatlar bilan diplomatik aloqalarni yo‘lga qo‘yish zarurati tug‘ildi. Shu nuqtai nazardan, Turkiya Respublikasi bilan aloqalarning shakllanishi va rivojlanishi alohida tarixiy va strategik ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar, avvalo, umumiy etnik ildizlar, turkiy til oilasiga mansublik, Islom dini va tarixiy-madaniy merosga asoslangan o‘zaro tushunish va ishonchga tayanadi (Türkmen, 2000)[1].

1991-yil 16-dekabrda Turkiya Respublikasi O‘zbekiston mustaqilligini rasman tan olgan birinchi davlat bo‘ldi (MFA, 2023) [2]. Oradan ko‘p o‘tmay, 1992-yil 4-mart kuni ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar o‘rnatildi. 1993-yil 6-aprel kuni

Anqarada O‘zbekistonning elchixonasi ochildi (TCCB, 2023) [3], 1994-yil yanvar oyida esa Toshkentda Turkiya Respublikasining elchixonasi faoliyat boshladi. Bu tarixiy voqealar ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy aloqalarning tezkor va ijobiy rivojlanganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, Turkiya hukumati tomonidan 1992-yildan boshlab “YTB – Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı” tizimi orqali o‘zbekistonlik talabalar uchun maxsus grantlar (Turkiye Burslari) ajratila boshlandi. 1992–2005-yillar oralig‘ida 3 mingdan ortiq o‘zbekistonlik talaba Turkiyada oliy ta’lim muassasalarida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘ldi (YTB, 2023) [4]. Bu raqam ikki xalq o‘rtasidagi ta’limiy integratsiyaning boshlanish nuqtasini belgiladi.

1990-yillarda Turkiya hukumati Markaziy Osiyo bo‘yicha “turkiy integratsiya” tamoyiliga asoslangan tashqi siyosatni ilgari surdi. Bu siyosatning amaliy ifodasi sifatida 1992-yilda Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining Boshqareshda (Turkiya) ilk sammiti bo‘lib o‘tdi. Ushbu forumda O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov ham ishtirok etdi va turkiy hamkorlikni qo‘llab-quvvatlashini bildirgan nutq so‘zladi (Yavuz, 2001) [5].

Shuni alohida ta’kidlash joizki, O‘zbekiston 1990-yillarda o‘z tashqi siyosatida muvozanatli yondashuvni tanlab, Rossiya bilan strategik aloqalarni saqlab qolgan holda, Turkiya bilan ham yangi ko‘rinishdagi sheriklikni shakllantirdi. Bu ikki yo‘nalishning uyg‘unligi O‘zbekiston tashqi siyosatining ko‘p vektorli modelini belgilab berdi (Dadabaev, 2016) [6].

Ushbu maqolada aynan SSSRdan keyingi davrda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlarning shakllanish bosqichlari tarixiy manbalar, statistik dalillar va siyosiy tahlillar asosida o‘rganiladi. Tahlil diplomatik aloqalarning boshlanishi, iqtisodiy va madaniy integratsiya jarayonlari, hamda 2016-yildan keyingi strategik burilish davrlarini qamrab oladi.

Mustaqillikdan keyingi ilk diplomatik aloqalar (1991–1994 yillar). 1991-yil 31-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi o‘z mustaqilligini e’lon qilganidan so‘ng, jahon hamjamiyatida yangi siyosiy realitet yuzaga keldi. Shu jarayonda Turkiya Respublikasi mustaqil O‘zbekistonni birinchi bo‘lib tan olgan davlat bo‘ldi. 1991-yil 16-dekabrda Anqara rasmiy bayonot orqali O‘zbekiston suverenitetini qo‘llab-quvvatlashini e’lon qildi (MFA, 2023) [7]. Bu nafaqat diplomatik akt, balki tarixiy, madaniy va siyosiy jihatdan chuqur ildizlarga ega bo‘lgan hamkorlikning boshlanishi

edi. 1992-yil 4-mart kuni ikki davlat o‘rtasida diplomatik munosabatlar rasmiy ravishda o‘rnatildi. Oradan ko‘p o‘tmay, 1993-yil 6-aprelda Anqarada O‘zbekiston elchixonasi faoliyatini boshladi. 1994-yil 16-yanvarda esa Toshkentda Turkiya Respublikasining elchixonasi ochildi (TCCB, 2023) [8]. Ushbu elchixonalar nafaqat siyosiy aloqa markazlari, balki madaniy, iqtisodiy va ta’limiy loyihalarning muvofiqlashtiruvchi nuqtasiga aylandi. Bu davrda ikki tomonlama munosabatlar asosan uch yo‘nalishda rivojlandi:

Dastlabki yillarda siyosiy darajadagi tashriflar faollashdi. 1992-yil noyabr oyida Turkiya Prezidenti Turg‘ut Ozal Toshkentga rasmiy tashrif buyurdi. Bu tashrif davomida tomonlar “Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim” imzoladilar (Milliy Arxiv, 1992)[9]. Shuningdek, 1993-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Turkiyaga rasmiy tashrif buyurib, Anqarada o‘tkazilgan turkiy tilli davlatlar sammitida qatnashdi. Ushbu tashrif doirasida siyosiy, iqtisodiy va madaniy yo‘nalishlarda qator memorandumlar imzolandi.

Turkiya hukumati 1992-yildan boshlab “Turkiye Burslari” dasturi orqali o‘zbekistonlik yoshlarga grant asosida ta’lim olish imkonini yaratdi. 1992–1994-yillar oralig‘ida 300 dan ortiq o‘zbekistonlik talaba Turkiyaning yetakchi oliy o‘quv yurtlariga qabul qilindi (YTB, 2023) [10]. Bu dastur nafaqat inson resurslarini rivojlantirishga, balki kelajakdagi diplomatik elitalar orasida o‘zaro tushunishni mustahkamlashga xizmat qildi. Shuningdek, Toshkentda turk tili o‘rgatish markazlari tashkil qilindi. 1993-yilda Toshkentdagi “Turk madaniy markazi” ochildi va bu yerda turk tili, adabiyoti va tarixiga oid maxsus kurslar, seminarlar va kutubxona faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

1992-yil 12-iyunda O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida “Iqtisodiy va texnik hamkorlik to‘g‘risida Bitim” imzolandi. 1993-yilda ikki davlat o‘rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 70 million AQSh dollarini tashkil etdi (TIKA, 1994) [11]. Bu ko‘rsatkich o‘zaro iqtisodiy aloqalarning yangi bosqichga kirganini bildiradi. 1993-yilda Turkiyaning “Koç Holding”, “Eczacıbaşı”, “Sabancı” kabi yirik kompaniyalari O‘zbekistonda o‘z vakolatxonalarini ochdi. Shu davrda turk sarmoyasi asosan yengil sanoat, savdo va qurilish sohalariga yo‘naltirilgan edi. 1994-yilga kelib, O‘zbekistonda 40 dan ortiq turk kompaniyalari faoliyat yurita boshlagan. (TIKA, 1995) [12].

2. Siyosiy va madaniy aloqalarning shakllanishi (1992–2000 yillar). 1990-yillarda Turkiya Markaziy Osiyodagi turkiy davlatlar, xususan O‘zbekiston bilan aloqalarni mustahkamlashga alohida e’tibor qaratdi. Turkiya Prezidenti Turg‘ut Ozal va keyinchalik Sulaymon Demirel bu yo‘nalishda faol tashabbuslar ko‘rsatdi. O‘zbekiston esa o‘zining tashqi siyosatida muvozanatni saqlagan holda Turkiya bilan madaniy, ta’limiy va iqtisodiy hamkorlikni kengaytirishga intildi. 1996-yilda Anqarada Turkiy tilli davlatlar rahbarlarining ilk sammiti bo‘lib o‘tdi. Bu sammit O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi hamkorlikni mintaqaviy kontekstga olib chiqdi.

1992–2000-yillar oralig‘i O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi munosabatlar tarixida siyosiy mustahkamlanish va madaniy diplomatiyaning shakllanish davri bo‘ldi. Bu davrda ikki tomonlama muloqot yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, huquqiy asoslarni mustahkamlovchi hujjatlar va xalq diplomatiyasini ilgari suruvchi dasturlar orqali chuqurlashdi.

Dastlabki siyosiy aloqalar doirasida 1992-yilning noyabr oyida Turkiya Prezidenti Turg‘ut Ozal O‘zbekistonga rasmiy tashrif buyurdi. Tashrif doirasida “Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risida Bitim” imzolandi (Milliy Arxiv, 1992) [13]. Ushbu hujjat ikki mamlakat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnik, madaniy va boshqa sohalarda uzoq muddatli hamkorlik asoslarini belgilab berdi.

Shuningdek, 1993-yil mart oyida O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimov Anqaraga rasmiy tashrif bilan bordi. U tashrif chog‘ida Turkiya Bosh vaziri Süleyman Demirel, Prezident Ozal va boshqa yuqori martabali rasmiylar bilan uchrashuvlar o‘tkazdi. Shu davrda “Savdo-iqtisodiy hamkorlik”, “Transport va kommunikatsiya”, “Ta’lim va ilm-fan” bo‘yicha bir nechta bitimlar imzolandi (TCCB, 2023)[14]

1995-yilda Turkiya Prezidenti Süleyman Demirelning Toshkentga tashrifi siyosiy aloqalarni mustahkamladi. Tashrif davomida ikki davlat o‘rtasida strategik aloqalarni yanada chuqurlashtirishga oid memorandumlar imzolandi. 1999-yilga kelib, ikki davlat prezidentlari 7 marotaba rasmiy uchrashuv o‘tkazgan edilar (TIKA, 2000)[15].

Madaniy aloqalar ikki xalqning tarixiy va etnik yaqinligiga tayangan holda rivojlandi. 1993-yilda Toshkentda Turk madaniy markazi tashkil etildi. Bu markaz orqali turk tili kurslari, adabiy kechalar, kino namoyishlari va tarixiy muzokaralar o‘tkazila boshlandi. O‘zbekiston ham Anqarada o‘z madaniyatini targ‘ib qiluvchi “O‘zbekiston madaniyati haftaligi” loyihasini 1995-yildan boshlab muntazam o‘tkaza boshladi (YTB, 2023)[16]. Turkiya hukumati tomonidan 1992-yildan boshlab

“Turkiye Burslari” grant dasturi orqali o‘zbekistonlik talabalarni o‘z oliygohlariga taklif qila boshladi. 2000-yilgacha bu dastur asosida 1 200 nafardan ortiq o‘zbekistonlik talabalar Turkiyada tahsil oldi (YTB, 2023)[17]. Bu hol ikki davlat orasidagi ta’limiy diplomatiya samaradorligini ko‘rsatadi. Shuningdek, Turkiya Teleradiokompaniyasi (TRT) orqali O‘zbekistonga mo‘ljallangan turkiy tilidagi teledasturlar efirga uzatila boshlandi. 1995-yildan boshlab esa Toshkentdagi ba’zi telekanallar turk seriallarini, ilmiy-diniy ko‘rsatuvlarni tarjima asosida namoyish eta boshladilar. Bu jarayon madaniy diffuziyaning muhim mexanizmlaridan biri sifatida xizmat qildi (Türkmen, 2000).[18]

1990-yillarning o‘rtalaridan boshlab, ikki davlat o‘rtasidagi nodavlat tashkilotlari (NGO) hamkorligi yo‘lga qo‘yildi. 1996-yilda Istanbulda “O‘zbekiston madaniyati va taraqqiyoti jamiyati” tashkil etildi. 1998-yilda esa Toshkentda Turkiya-O‘zbekiston do‘stlik jamiyati o‘z faoliyatini boshladi. Ushbu nodavlat tashabbuslar ikki xalq orasida o‘zaro madaniy anglashuvni mustahkamlashda muhim vosita bo‘ldi.

3. Iqtisodiy hamkorlik va sarmoyalar oqimi (2000–2016 yillar). 2000–2016-yillar oralig‘i O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarda sifat jihatdan yangi bosqichni boshlab berdi. Bu davrda ikki davlat o‘rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar mustahkamlandi, sarmoya oqimi barqaror tus oldi, qo‘shma korxonalar soni ortdi va texnik ko‘mak dasturlari faol yo‘lga qo‘yildi. O‘zbekiston hukumati xorijiy sarmoyadorlar uchun yaratilgan soliq imtiyozlari va erkin iqtisodiy zonalar orqali Turkiya biznesining mamlakatga kirib kelishini rag‘batlantirdi.

2000-yilda ikki davlat o‘rtasidagi savdo hajmi 130 million AQSh dollarini tashkil etgan bo‘lsa, 2015-yilga kelib bu ko‘rsatkich 1,2 milliard AQSh dollariga yetdi (TIKA, 2016)[19]. Savdo hajmidagi bunday o‘sish ikki tomonlama iqtisodiy manfaatlar kengayib borayotganidan dalolat beradi. Turkiya O‘zbekistonning eng yirik savdo sheriklari qatoridan o‘rin olib, asosan yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, qurilish, farmatsevtika, elektrotexnika va xizmat ko‘rsatish sohalarida faoliyat yurituvchi kompaniyalar orqali savdo muvozanatini ta’minladi (DEİK, 2016)[20]. Mazkur davrda O‘zbekistonda turk sarmoyasi ishtirokida tashkil etilgan korxonalar soni keskin oshdi. 2016-yil holatiga ko‘ra, O‘zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo‘shma korxonalar soni 500 dan oshdi, shundan 400 dan ortig‘i turk kapitallari ishtirokida tashkil etilgan edi (UzStat, 2016) [21]. Yirik turk kompaniyalari, jumladan “Çalık Holding”, “Küçükçalık Group”, “Zorlu Holding”, “Eczacıbaşı” va “Koç

Holding” O‘zbekistonda investitsion loyihalarni amalga oshirishda faol qatnashdi. Masalan, “Çalık Holding” guruhi Toshkentdagi “Tashkent Textile” fabrikasini modernizatsiya qilish loyihasiga 40 million AQSh dollari miqdorida sarmoya kiritdi (TIKA, 2015)[22]. 2013-yilda Andijon viloyatida “Uzeltexsanoat” uyushmasi bilan hamkorlikda “Uzeltech-Turkey” qo‘shma korxonasi ishga tushirildi. U elektrotexnika mahsulotlarini ishlab chiqarishga yo‘naltirilgan yirik sanoat loyihasi bo‘lib, bu turkumdagi texnologik almashinuvning namunasidir (UzReport, 2014).[23]

Turkiya Hamkorlik va Koordinatsiya Agentligi – TIKA 2000-yillarda O‘zbekistonda o‘z faoliyatini sezilarli darajada kengaytirdi. TIKA orqali 2000–2015-yillar oralig‘ida O‘zbekistonda umumiy qiymati 35 million AQSh dollariga teng 300 dan ortiq loyihalar amalga oshirildi. Ushbu loyihalar asosan:

- sog‘liqni saqlash,
- ta’lim,
- madaniy merosni restavratsiya qilish,
- qishloq xo‘jaligi kabi sohalarni qamrab oldi

Masalan, Samarqanddagi Imom Buxoriy majmuasi hududida 2014-yilda TIKA tomonidan restavratsiya ishlari amalga oshirildi. Shuningdek, turk mutaxassislari tomonidan tibbiyot sohasida o‘zbekistonlik shifokorlar uchun malaka oshirish kurslari tashkil etildi (TIKA, 2015)[24].

2003, 2007 va 2014-yillarda ikki davlat o‘rtasida o‘tkazilgan Turkiya–O‘zbekiston iqtisodiy forumlari ikki tomonlama sarmoyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qildi. 2014-yilgi Toshkent forumida ishtirok etgan 150 dan ortiq turk ishbilarmonlari O‘zbekistonda yirik loyihalarni amalga oshirishga qiziqish bildirgan edi (DEİK, 2015)[25]. Bundan tashqari, 2008-yilda Prezident Islom Karimovning Anqaraga tashrifi chog‘ida iqtisodiy hamkorlik masalalari muhokama qilinib, “Strategik iqtisodiy hamkorlik bo‘yicha qo‘shma komissiya” tashkil etildi. Bu komissiya ikki davlatning iqtisodiyot, transport va sanoat sohalaridagi hamkorlik dasturlarini muvofiqlashtiruvchi muhim platformaga aylandi (TCCB, 2008)[26].

Mirziyoyev davrida strategik hamkorlikning yangi bosqichi (2017–2024 yillar). 2017-yil 25-oktabrda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Turkiyaga rasmiy tashrifi bilan ikki tomonlama munosabatlar yangi bosqichga ko‘tarildi. 2018-yil 30-aprelda Prezident Rejep Tayyip Erdo‘g‘onning O‘zbekistonga tashrifi davomida “Keng qamrovli strategik sheriklik to‘g‘risida” qo‘shma deklaratsiya imzolandi. Ushbu hujjat ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni yanada mustahkamlashga xizmat qildi. 2024-yil 6-iyunda Anqarada bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston–Turkiya Oliy darajadagi strategik hamkorlik kengashining uchinchi yig‘ilishi davomida 10 milliard dollarlik investitsiya loyihalari portfeli shakllantirildi. Bu kengash ikki davlat o‘rtasidagi strategik sheriklikni chuqurlashtirishda muhim rol o‘ynadi.

2017–2023-yillar davomida O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi savdo hajmi 2,4 barobarga oshdi. 2023-yilda Turkiyaning O‘zbekistonga eksporti 1,87 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 2,23 milliard dollarga yetdi. Turkiya O‘zbekistonning asosiy savdo sheriklaridan biri bo‘lib, 2024-yilda umumiy import hajmining 4,6 foizini tashkil etdi. Turkiya sarmoyasi ishtirokida O‘zbekistonda tashkil etilgan qo‘shma korxonalar soni 2017-yildan 2023-yilgacha besh barobarga oshdi. Turkiya sarmoyasi hajmi esa 70 barobarga ko‘paydi. Turkiya pudratchilari tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 7,2 milliard AQSh dollarini tashkil etdi.

Turkiya Hamkorlik va Koordinatsiya Agentligi (TİKA)[27] O‘zbekistonda sog‘liqni saqlash, ta‘lim, madaniyat va qishloq xo‘jaligi sohalarida 300 dan ortiq loyihani amalga oshirdi. 2024-yilgi hisobotga ko‘ra, TİKA tomonidan O‘zbekistonda amalga oshirilgan loyihalarning umumiy qiymati 35 million AQSh dollaridan oshdi.

2023-yilda TİKA va O‘zbekiston hukumati o‘rtasida yangi qo‘shma loyihalarni amalga oshirish bo‘yicha kelishuvlarga erishildi. Ushbu loyihalar texnik yordam, grantlar va moliyaviy-texnik qo‘llab-quvvatlashni o‘z ichiga oladi.

2023-yilda Anqarada O‘zbekiston–Turkiya strategik sheriklikka bag‘ishlangan simpozium bo‘lib o‘tdi. Tadbirda iqtisodiyot, investitsiyalar, madaniyat, turizm va boshqa sohalaridagi hamkorlik masalalari muhokama qilindi. Shuningdek, 2023-yilda Prezident Mirziyoyev Turkiyaga ikki marotaba tashrif buyurdi, Prezident Erdo‘g‘on esa O‘zbekistonga tashrif buyurib, Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (ECO)[28]

sammitida ishtirok etdi. Ushbu tashriflar ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy va iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamladi .

Ta’lim va madaniyat sohasidagi integratsiya (2017–2024-yillar). 2017-yildan boshlab O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi oliy ta’lim sohasidagi hamkorlik sezilarli darajada kengaydi. Turkiya oliy ta’lim muassasalari O‘zbekistonda filiallar ochish va qo‘shma dasturlarni amalga oshirish orqali faoliyat yuritmoqda. Masalan, Toshkentda Turkiyaning nufuzli universitetlari bilan hamkorlikda bir nechta qo‘shma ta’lim dasturlari yo‘lga qo‘yildi .

Shuningdek, Turkiya oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda talabalar almashinuvi dasturlari amalga oshirilmoqda. Bu dasturlar orqali o‘zbekistonlik talabalar Turkiyada tahsil olish imkoniyatiga ega bo‘lib, xalqaro standartlarga mos ta’lim olishmoqda .

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasida madaniy almashinuv dasturlari ham faol rivojlanmoqda. 2018-yildan boshlab ikki davlat o‘rtasida madaniyat haftaliklari, san’at ko‘rgazmalari va konsertlar muntazam o‘tkazilmoqda. Bu tadbirlar ikki xalqning madaniy qadriyatlarini o‘zaro tanitish va mustahkamlashga xizmat qilmoqda .

Shuningdek, Turkiya va O‘zbekiston madaniyat vazirliklari o‘rtasida hamkorlik memorandumini imzolangan bo‘lib, bu memorandum asosida madaniy merosni asrash, restavratsiya ishlari va madaniy tadbirlarni tashkil etish bo‘yicha qo‘shma loyihalar amalga oshirilmoqda .

O‘zbekiston va Turkiya Turk tilli davlatlar tashkiloti (TTDT) [29] doirasida ham ta’lim va madaniyat sohalarida hamkorlikni rivojlantirmoqda. TTDTning ta’lim bo‘yicha ishchi guruhlar orqali ikki davlat o‘rtasida akademik hamkorlik, talabalar va professor-o‘qituvchilar almashinuvi, o‘quv dasturlarini muvofiqlashtirish kabi yo‘nalishlarda ishlar olib borilmoqda .

Xulosa

O‘zbekiston va Turkiya o‘rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar, ayniqsa SSSR parchalanganidan so‘ng, izchil taraqqiyot yo‘lini bosib o‘tdi. Mustaqillik yillarining dastlabki bosqichida (1991–1994) diplomatik aloqalarning o‘rnatilishi, Turkiya tomonidan ilk bo‘lib O‘zbekiston mustaqilligini tan olgan davlat sifatida e’tirof etilishi bu yo‘ldagi tarixiy qadam bo‘ldi. Siyosiy va madaniy aloqalar bosqichida (1992–2000) esa ikki tomonlama hamkorlikning institutsional asosi yaratilgan bo‘lib,

bu bosqichda ilk madaniy almashinuvlar, oliy darajadagi tashriflar va madaniyat kunlari o‘tkazilishi muhim ahamiyat kasb etdi.

2000–2016-yillar davomida iqtisodiy hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Turkiya kompaniyalari O‘zbekiston bozoriga faol kirib bordi, sarmoya hajmi va savdo aylanmasi barqaror o‘tib bordi. Ayniqsa, yengil sanoat, qurilish va transport sohalaridagi loyihalar ikki davlat iqtisodiyotlarini bir-biriga yaqinlashtirdi.

2017-yildan boshlab Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan strategik hamkorlik yangi bosqichga ko‘tarildi. Bu davrda siyosiy, iqtisodiy, madaniy, ilmiy va xavfsizlik sohalarini qamrab oluvchi keng qamrovli sheriklik asosida yangi yondashuvlar ishlab chiqildi. Investitsiyalar hajmi keskin ortdi, savdo-iqtisodiy hamkorlikda sifatli o‘zgarishlar yuz berdi, TİKA va boshqa turk agentliklari tomonidan amalga oshirilgan texnik yordam dasturlari esa ikki tomonlama munosabatlarga real mazmun bag‘ishladi. Ta’lim va madaniyat sohasidagi integratsiya esa alohida e’tiborga loyiq. Oliygothlararo hamkorlik, talabalar almashinuvi, qo‘shma dasturlar, shuningdek, madaniyat kunlari, ko‘rgazmalar va simpoziumlar ikki xalq o‘rtasidagi tarixiy, til va madaniy yaqinlikni mustahkamladi.

Umuman olganda, O‘zbekiston–Turkiya munosabatlari 1991-yildan hozirgacha izchil rivojlanib, hozirda keng qamrovli strategik hamkorlik darajasiga yetdi. Bu hamkorlik nafaqat ikki davlat manfaatlariga, balki butun Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq mintaqasidagi barqarorlik va taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Kelgusida ham bu munosabatlarning yanada mustahkamlanishi, yangi sohalarni qamrab olishi va global miqyosdagi tashabbuslarda o‘z ifodasini topishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar va ilovalar ro‘yxati

1. Türkmen, M. (2000). Turkey’s Policy in Central Asia: Strategic and Cultural Dimensions. *Journal of Central Asian and Caucasian Studies*, 5(2), 45–58.
2. MFA (2023). Relations between Turkey and Uzbekistan. Ministry of Foreign Affairs of Turkey. <https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkey-and-uzbekistan.en.mfa>
3. TCCB (2023). O‘zbekiston bilan strategik hamkorlik tafsilotlari. Presidency of the Republic of Turkey. <https://www.tccb.gov.tr>
4. YTB (2023). Turkey Scholarships Annual Report. <https://www.ytb.gov.tr>

5. Yavuz, M. H. (2001). Islamic Political Identity in Turkey. Oxford University Press.
6. Dadabaev, T. (2016). Japan and Central Asia: Strategy, Politics, and Regionalism. Routledge.
7. MFA. (2023). Relations between Turkey and Uzbekistan. Ministry of Foreign Affairs of Turkey. <https://www.mfa.gov.tr/relations-between-turkey-and-uzbekistan.en.mfa>
8. TCCB. (2023). Turkey-Uzbekistan Strategic Relations Overview. Presidency of the Republic of Turkey. <https://www.tccb.gov.tr>
9. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi. (1992). Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim matni, fond 1, ro‘yxat 3, ish 11.
10. YTB. (2023). Turkey Scholarships Annual Report. Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. <https://www.ytb.gov.tr>
11. TİKA. (1994). Annual Report on Technical and Economic Cooperation in Central Asia. Turkish Cooperation and Coordination Agency.
12. TİKA. (1995). Foreign Investments in Uzbekistan: Turkish Participation. Ankara: TİKA Publications.
13. O‘zbekiston Respublikasi Milliy Arxivi. (1992). Do‘stlik va hamkorlik to‘g‘risidagi Bitim matni, fond 1, ro‘yxat 3, ish 11.
14. TCCB. (2023). Turkey-Uzbekistan Strategic Relations Overview. Presidency of the Republic of Turkey. <https://www.tccb.gov.tr>
15. TİKA. (2000). Central Asia: Development Report. Ankara: Turkish Cooperation and Coordination Agency.
16. YTB. (2023). Türkiye Bursları Raporu. Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. <https://www.ytb.gov.tr>
17. YTB. (2023). Türkiye Bursları Raporu. Yurtdışı Türkler ve Akraba Topluluklar Başkanlığı. <https://www.ytb.gov.tr>
18. Türkmen, M. (2000). Turkey’s Cultural Policy Toward Central Asia. Journal of Central Asian and Caucasian Studies, 5(2), 45–58.
19. TİKA. (2016). Central Asia Economic Cooperation Report. Ankara: TİKA Publications.
20. DEİK. (2015). Türkiye–Özbekistan İş Forumu Raporu. Dış Ekonomik İlişkiler Kurulu. <https://www.deik.org.tr>

21. UzStat. (2016). Foreign Investment Indicators in Uzbekistan (2000–2015). O‘zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo‘mitasi. <https://stat.uz>
22. TIKA. (2015). TİKA Uzbekistan Annual Report. Turkish Cooperation and Coordination Agency. <https://www.tika.gov.tr>
23. UzReport. (2014). Turkish-Uzbek Joint Venture Uzeltech-Turkey Launched in Andijan. <https://uzreport.news>
24. TIKA. (2015). TİKA Uzbekistan Annual Report. Turkish Cooperation and Coordination Agency. <https://www.tika.gov.tr>
25. DEİK. (2015). Türkiye–Özbekistan İş Forumu Raporu. Dış Ekonomik İlişkiler Kurulu. <https://www.deik.org.tr>
26. TCCB. (2008). Speech by President I. Karimov in Ankara and Joint Economic Memorandum. Presidency of the Republic of Turkey. <https://www.tccb.gov.tr>
27. TİKA. (2024). Development Assistance Report of Türkiye. <https://tika.gov.tr/wp-content/uploads/2024/10/Development-Assistance-Report-of-Turkiye.pdf>
28. Trading Economics. (2025). Turkey Exports to Uzbekistan. <https://tradingeconomics.com/turkey/exports/uzbekistan>
29. Turkic States. (2024). Education Cooperation - Organizations of Turkic States. <https://www.turkicstates.org/en/areas-of-cooperation-detail/6-education-cooperation>.